XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-53-153-5-210-K/23 G‘ozg‘on shahri xokimligi

G‘ozg‘on shahrining 2024-yilgi mahalliy budjeti parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikaning 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq hamda Navoiy viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi №-01-12/20-05-38/3684-sonli xatini inobatga olib xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Navoiy viloyati Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 28 - dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-66-128-5-0-K/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. G‘ozg‘on shahar mahalliy budjetining 2024-yil uchun budjet daromadlari **3 382 mln. so‘m** xarajatlari **37 772 mln.** so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun G‘ozg‘on shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi **1-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

2024-yil uchun shaharning mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq;

5. 2024-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi **3-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2024-yil uchun viloyat budjetidan shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun shaharning budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **314.5 mln.** so‘m miqdorida belgilansin.

2024-yil uchun shahahrning shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **83 181 ming.** so‘m miqdorida belgilansin.

8. Qonun bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-sonli qaroriga asosan 2024-

moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi bunda aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun shahar budjetining 5 foizi miqdorida biroq kamida **6.0 mlrd. so‘m** mablag‘ rejalashtirish belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. G‘ozg‘on shahar hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b (R.Shodiyev) Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boboyev) soliq inspeksiyasi (M.Ramazonova) shahar tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Shahar soliq inspeksiyasi (M.Ramazonova)ga:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

yer solig‘i suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda soliqlarni to‘liq hisoblanishini

hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali er va mol-mulk solig‘ining soliq bazasi oshirilishini;

Kadastr agentligi shahar bo‘limi bilan birgalikda viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini;

12. Shahar soliq inspeksiyasi (M.Ramazonova) Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Navoiy mintaqaviy inspeksiyasi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirish ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi G‘ozg‘on shahar bo‘limi shahar soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

14. Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari

hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishiga hamda ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

15. Shahar budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin bunda shahar xalq deputatlari Yoshlar ishlar agentligi shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar qurilish rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

16. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b (R.Shodiyev) hamda xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

17. Shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

18. Mazkur qaror “Navqiron G‘ozg‘on” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. R.Shodiyev va xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Egamova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Bazarov**

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-153-5-210-K/23-son qaroriga
1-ilova

G‘ozg‘on shahar mahalliy budjetining 2024-yilgi asosiy daromad ko‘rsatkichlari to‘g‘risida
MA’LUMOT

ming.so‘mda

№	Daromad turi	G‘ozg‘on shahar
	Jami daromadlar	**3 382 000**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Стимулирующие) daromad**	**2 010 000**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*6 700 000*
	Ajratma me’yori	***30***
1.	Mahalliy budjetga	2 010 000
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	*345 000*
	Ajratma me’yori	
2.	Mahalliy budjetga	
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**1 372 000**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**876 000**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	22 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	472 000
3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	382 000
	Viloyat va shahar budjeti o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**496 000**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	744 000
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
2	Benzin dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
3	Yuridik shaxlarning mol-mulkiga solinadigan soliq	465 000
	Ajratma me’yori	***100***
	Mahalliy budjetga	465 000
4	Yuridik shxslar er solig‘i	977 000
	Ajratma me’yori	***100***
	Mahalliy budjetga	
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	31 000
	Ajratma me’yori	***100***
	Mahalliy budjetga	31 000

6	Ijara to‘lovlari	2 000
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
7	Yig`imlar	332 000
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
	Viloyat budjetiga	
1	Davlat bojlari	270 000
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
2	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i	
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
3	Jarimalar	125 000
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
4	Xususiylashtirish	
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
5	Boshqa tushumlar	
	Ajratma me’yori	
	Mahalliy budjetga	
III.	**Taqsimlovchi daromadlar (Formula bo‘yicha)**	**1 573 152**
	Aholi soni (ming kishi)	*9 183*
14.	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	681 910
15.	Tamaki mahsulotlariga aksiz solig‘i	616 567
16.	Mobil aloqa aksiz solig‘i	274 675

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-153-5-210-K/23-son qaroriga
2-ilova

G‘ozg‘on shahar mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan byudlet tashkilotlariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming.so‘m

Ko‘rsatkichlar		
		G‘ozg‘on shahar
	Xarajatlar-jami	**37 772 067.0**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar-jami**	**14 431 668.0**
	Shu jumladan:	
1.1	**Maorif**	**3 700 900.0**
	- maktabgacha ta'lim	1 409 523.0
	- umumiy ta'lim	2 291 377.0
1.2	Sog‘liqni saqlash	8 138 768.0
	shundan: Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga transfertlar	
1.3	Madaniyat	541 673.0
1.4	Sport	2 039 827.0
1.5	Fan	
1.10	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoi-moddiy yordam paketi»	10 500.0
1.14	Fuqarolarga etkazilgan zararni qoplash	
1.15	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**8 180 238.0**

	Shu jumladan:	
2.1	Ichki va xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000.0
2.2	O‘simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari	
2.3	Obodonlashtirish	3 610 489.0
2.4	Ko‘p kvartirali uy-joylarning tutash hududlarini obodonlashtirish xarajatlari	
2.5	Veterenariya qo‘mitasi	504 049.0
2.20	"Mahalla budjeti" jamg‘arma mablag‘lari	65 700.0
3.	**Davlat markaziy hokimiyati organlari**	
4.	**Davlat boshqaruvi organlarini saqlash**	**8 845 586.0**
5.	**Zaxira jamg‘armasi**	**314 575.0**
6.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**6 000 000.0**
6.1	*Tashabbusli budjet tadbirlari*	*6 000 000.0*

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-153-5-210-K/23-son qaroriga
3-ilova

G‘ozg‘on shahar mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
G‘ozg‘on shahar	**3 382 000**	**37 772 067**

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-53-153-5-210-K/23-son qaroriga
4-ilova

G‘ozg‘on shahar mahalliy budjetining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar nomi	Summa	Shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar
G‘ozg‘on shahar	**34 390 067**	**1 573 152**